

## “INNOPROM-2021”-“Innovation” kelajak poydevori

Joriy yilning 5-7-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan ilk bor tashkil etilgan “INNOPROM-2021” xalqaro sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.



Bu xalqaro sanoat ko'rgazmasida institutimiz professor-o'qituvchilari, yosh olimlar, magistrantlar va talabalar faol ishtirok etdilar. Ko'rgazmada turli tashkilot vakillari hamda chet ellik mehmonlar tomonidan ma'ruzalar, master-klasslar tashkil qilindi. Xalqaro sanoat ko'rgazmasida energetika sohasidagi innovatsiyalar, xalqaro ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirish, mashinasozlik sohasidagi qo'shma loyihalar, yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan mahalliy va xorijiy ishtirokchilarning yangi ishlanmalari bilan tanishishga musharaf bo'lindi.



Ko'rgazmada turli transport va energetika mashinasozligi, shaharlar uchun texnologiyalar, metallurgiya va materiallar, plastmassa va kauchuklar ishlab chiqarish texnologiyalari va boshqa bir qator yo'nalishlarda mutaxassislardan qiziqtirgan savollarga javoblar olindi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**